

## PEYZAJ LIRIKASIDA SHAKL VA MAZMUNNING MUTANOSIBLIGI (ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATI MISOLIDA)

Axmedova Gulzoda Akbarjon qizi,  
O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Eshqobil Shukurning tabiat tasviri aks etgan she'rlarida shakl va mazmunning o'ziga xosligi masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqotda ijodkorning «Boymoqlida bahor», «Titroq novdalarda...», «Suv», «Orol», «Bobodehqon» va «Ko'z yumib ko'rganlarim» kabi she'rlarining shakl va mazmun mutanosibligi tahlil qilinadi. She'rlar orqali jonli tabiat manzarasi, undagi shakl va mazmunning falsafiy mohiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** «Boymoqlida bahor», «Titroq novdalarda...», «Suv», «Orol», «Bobodehqon», «Ko'z yumib ko'rganlarim», peyzaj lirikasi, shakl, mazmun.

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросу своеобразия формы и содержания в стихотворениях Эшкabila Шукура, отражающих изображение природы. В исследовании анализируется соотношение формы и содержания таких стихотворений поэта, как «Боймоқлида баҳор», «Титроқ навдаларда...», «Сув», «Орол», «Бободехқон» и «Кўз юмиб кўрганларим.» Через стихи обосновывается философская сущность пейзажа живой природы, его формы и содержания.

**Ключевые слова:** «Баҳор дар Боймоқли», «Титроқ навдаларда...», «Сув», «Орол», «Бободехқон», «Кўз юмиб кўрганларим», пейзажная лирика, форма, содержание.

**Abstract.** This article is devoted to the issue of the distinctive features of form and content in the poems of Eshqobil Shukur that depict nature. The study analyzes the harmony of form and content in the poet's works such as "Spring in Boymoqli," "On Trembling Branches...," "Water," "Aral," "Grandfather peasant," and "What I Saw with My Eyes Closed." Through these poems, vivid natural landscapes are explored, and the philosophical essence of the unity between form and content is substantiated.

**Keywords:** "Spring in Boymoqli," "On Trembling Branches...," "Water," "Aral," "Grandfather peasant," "What I Saw with My Eyes Closed," landscape lyrics, form, content.

She'riyat bu inson his-tuyg'usi va kechinmalarining badiiy ifodasidir. "She'riyat — yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi dil suhbatidir. Shoir uchun bu suhbat — yurakni borlig'i bilan ochmak, o'quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamakdir. She'rni anglamakning o'zi ham iste'dod. Biz bu iste'dodning nomini nazokat deymiz, nozikfahmlilik deymiz. Bu fazilatga yangilikni anglash va baho bera olish sifati qo'shilganda u didga aylanadi. Didni esa yoshlikdan tarbiyalamoq, bilim va tuyg'ular boyligi bilan kamolotga yetkazmoq kerak" [1: 131]. Yuqoridagi fikrlardan aniqki, shoir dil so'zlarini qog'ozga tushirar ekan, iste'dodli o'quvchigina she'riyatni anglab yetishi, buning uchun yoshlikdan rivojlantirilgan did lozimligini shoirimiz ipga tizilgan marjon kabi tushuntirib o'tganlar.

Bizga ma'lumki, azaldan deyarli barcha shoirlar ijodida tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlar talaygina chunki shoirlar tabiatdan ilhom oladi. E'tiborli jihati shundaki, shoirlar tabiatda biz ilg'amagan tasvir va hodisalarni juda go'zal va jonli tarzda ifodalab, o'z she'riy satrlarini qog'ozga tushiradilar. Shoirlar she'riy misralarida hayvonlar, qushlar,

hasharotlar, hatto jonsiz daraxtlar, o'simliklar, jilg'alar, oy, yulduz va quyosh kabi obrazlar bilan muloqotga kirishadilar. Tabiatni yurakdan his etib, sevib va unga mehr qo'ygan insongina hayvonot va nabotot olamining tilini tushunadi va shunday shoirlarning she'rlari she'riyat shaydolarining ko'nglidan munosib joy oladi. Ijodkor tashqi olamni kuzatish, o'rganish, tadqiq etish va jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini taqqoslash orqali his-tuyg'ulari, orzulari va armonlarini lirikasi badiiy asarlarida ifoda etadi. O'zbek adabiyotshunoslik lug'atida peyzaj lirikasi terminiga quyidagicha izoh berilgan: "Peyzaj lirikasi — tavsifiy lirikaning bir turi, lirik subyektning his-tuyg'u va kechinmalari tabiat tasviri orqali ifodalangan asarlar. Peyzaj lirikasida tasvirlangan tabiat manzarasida lirik subyekt qalbi suratlanadi, lirik subyekt qalbidan o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi. Shu ma'noda, peyzaj lirikasida tabiatni tasvirlash maqsad emas, balki bir vositadir" [ 2:221]. Tabiat tasviriga oid she'rlar turli xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan: «Qo'shig'ini axtarib daralar, daryolar, o'rmonlar uzra kezayotgan Shamol; tun sukunatida unsiz shivirlayotgan Yulduzlar; bulutlar ortidan hazin mo'ralayotgan Oy; jo'shqinlik shavqiga to'lib oqayotgan Buloq; osmonning ko'z yoshlari – Yomg'ir; har biri o'z fayzi va quvonchlariga ega fasllar: Kuz, Qish, Bahor, Yoz – bularning barchasi qadim-qadimdan shoirlarni ilhomlantirib kelgan»[ 3:15].

Eshqobil Shukur she'riyati o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Shulardan biri go'zal tabiat manzaralarini tasvirlashda yangi va ohorli so'zlarni qo'llay bilishidadir. «Borliqdagi har bir narsa-hodisada son-sanoqsiz sir-sinoat mavjud. Ularning ayrimlari ko'rinsa, ko'pi yashirin turadi. Dov-daraxt, o't-o'lanlarning har faslda turlanishi yoki narsalarning issiq-sovuq ta'sirida o'zgarishi, suvning oqishi, loyqalanishi, muzlashi, bug'lanishi yoki kecha-kunduz almashinuvi kabilar hamma hodisaning ichida ko'zga ko'rinmaydigan mislsiz harakat jarayoni mavjudligidan dalolat beradi. Shoir boshqalar sezmaydigan ana shu sirli jarayonni ko'ra biladi. Uning sezgir, ta'sirchan qalbida narsalarning yashirin sir-sifatlar aks etganidan she'rlarida ularni ma'lum qiladi». [4: 161] Misol uchun, «Boymoqlida bahor» she'ridagi quyidagi misralarni tahlilga tortaylik:

«Boymoqlida maysa nish urar,  
Oqshom yo'lni changitar poda.  
Daraxtlarda gullar gurkirar,  
To'lqinlar tirilar daryoda.  
Boymoqlida qirlar ostida,  
Ko'z ochadi ming-ming qo'zichoq.  
Yashillangan tomlar ustida  
Kelinlarday titrar qizg'aldoq» [5: 4]

«Boymoqli» — Surxon vohasining qishloqlaridan birining nomi bo'lib, adib tug'ilib, voyaga yetgan maskan. Shoir dastlabki to'rtlikda bahor faslining ilk belgilaridan biri maysaning nish urishi, daraxtlar gulga burkanishi, qishda muzlab qolgan daryo suvlari

erib, to'liqlar harakatga kelishini jonli va go'zal tarzda tasvirlagan. Keyingi to'rtlikda qirlarda minglab qo'zichoqlarni tug'ilishi va tomlarda kelinlardek titrab turgan qizg'aldoqlarning ochilishi tasvirlangan baytlarni o'qiganimizda chekka va olis qishloqning go'zal tabiat tasviri va bolalik xotiralarimiz beixtiyor ko'z oldimizda gavdalanadi. Shoirning ko'ngillarni mahliyo qiluvchi go'zal tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlari yanada jo'shqinroq misollarda davom etadi. Bahor faslining kirib kelishini «Titroq novdalarda...» nomli she'rida ham shoirimiz qalbidagi inja tuyg'ularini she'riy tarzda qog'ozga muhrlagan:

«Titroq novdalarda uyg'onar hayot,  
Sarg'aygan qor kabi erib bitar dard.  
Yashil tuyg'ulardan chayqalasan shod,  
Fevral o'tib borar, yaqinlashar mart.

Ushbu to'rtlikning dastlabki misrasida novdalarning kurtak chiqarishi yangi hayot nishonasi ekanligi nazarda tutilgan bo'lib, bu holat barchamizga ma'lum. Ammo «Titroq novdalarda uyg'onar hayot» deya go'zal tarzda ifodalanishi shoirning qalami o'tkirligidan dalolatdir. Dardni «sarg'aygan qor»ga mengzashi, inson tuyg'ularini ham tabiat rangiga hamohang ravishda yashil rangda bo'lishi ijodkorning topildig'i.

Musaffo ruhingni alqaydi qushlar,  
Maysalar — hayotning shirin tillari.  
Uyqungni to'ldirar eng go'zal tushlar,  
Oyning nurlarini silar qo'llaring.

«Eshqobil Shukurning she'rlari ohorli o'xshatish, sifatlash, jonlantirishga boyligi bilan ajralib turadi. U qo'llagan obrazli ifodalar jarangdorligi, ma'nosining ta'sirchanligi bilan kishining qalb qandilini nurlantiradi.....Shoir novdalarni jonli deb tasavvur qiladi. Bahor yashilligi kishilarning ko'nglida aks etishiga e'tibor qaratadi. Bahor tufayli kishilarning mudroq tuyg'ulari ham uyg'onadi deydi. "Maysalar - hayotning shirin tillari" - bunday ta'rif boshqa shoirlar ijodida uchramaydi» [ 6:161]

Kunlarning chiroyi ochilib borar,  
Ochilib borasan kunlarday go'zal.  
Ikki fasl sening ko'nglingga qarar».  
Ko'nglingni avaylab qisqarar fevral. [7: 44]

Tabiat yanada chiroy ochib borgani sayin inson kayfiyati ko'tarilib, tashqi ko'rinishida ham go'zallik namoyon bo'ladi. Hatto fasllar insonni xursand qilishga harakat qiladi. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, mashhur shoir A.Oripov: «Koinot gultoiji insondir azal»,— deb bejiz xitob qilmagan. Shoir peyzaj lirikasida sof tabiat manzaralarini jonli, go'zal tashbehlariga boy tarzda ifodalagan hamda poetik tasvir vositalardan mahorat bilan qo'llagan. Hatto rassom suratida yo'q olam ranglari ham shoir she'rlarida ohorli suratda tasvirlangan. Shoir she'rlaridagi sof tabiat manzaralari inson ichki olami bilan

hamohang ravishda uyg'unlashib ketgan. Natijada sof peyzaj tasviridagi she'rlar vujudga kelgan.

Hazrat A. Navoiy «Hayrat ul- abror» dostonining «So'z ta'rifi» bobida she'riyatda shakl va mazmun tushunchalarini quyidagi satrlar orqali ifoda etadi:

Nazmda ham asl anga ma'ni erur,  
Bo'lsun aning surati har ne durur.  
Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,  
Ahli ma'ni qoshida xo'b emas.

Nazmda she'rning surati ya'ni shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning darajasini belgilovchi asosiy jihati ma'no, ma'nosi yo'q she'r, she'riyat bilimdonlari nazdida e'tirof etilmaydi. Agar nazmning shakli bilan mazmuni bir-biriga mos ravishda go'zal bo'lsa, u yetuk badiiy she'r darajasiga ko'tariladi. Eshqobil Shukur lirikasida chuqur ma'no - mazmunga boy ko'plab she'rlar o'rin olgan. Xususan, «Suv» she'rida Abdulla Oripovning: «Bekor qolganda-chi ba'zida sekin, Bir-birin tagiga suv quyay» misralarini epigraf sifatida keltirib o'tadi:

«Daryolar quridi, ko'llar qatqaloq,  
Sahroday qaqraydi ko'zlarimiz ham.  
Qiyomat oldin Haq qilib taloq,  
Qadrsiz lafz ila so'zlarimiz ham  
«Bizlarga suv kerak, katta suv kerak»  
Haq esa so'raydi to'lovsiz xunni.  
Ko'za sindirganning ra'yiga qarab  
Oshkora xo'rladik Sayxun, Jayxunni.  
Sho'r tuzga topshirdik taqdirimizni,  
Hamon beparvomiz, hamon bema'ni.  
Dengizga emas-da, bir-birimizning  
Tagimizga quyib ikki daryoni» [ 8:73]

Orol dengizi qurishi halokati va ekologik muammolar to'g'risida juda ko'p so'z yiritiladi. Ushbu she'rda tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi ya'ni daryo va ko'llarning qurishi insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbatning yo'qolishi bilan barobarligi ta'sirchan ifodalanadi.» Shoirning «Orol» sarlavhali to'rtligida ham ijtimoiy fikrlar ilgari surilgan.

«Hamisha oqadi oqqan daryolar»  
Deb hikmat aytganlar , o'tgan bobolar,  
O'zani buzilib oqmay qo'ysa xalq,  
Oqmay qo'yar ekan oqqan daryolar»[9: 57].

Birinchi misrada xalq orasida keng tarqalgan bir hikmat eslatiladi. Daryo tabiatan doimo oqadi, ya'ni tabiat qonuniyati. Shoir bu fikrni xalq donishmandligiga bog'laydi.

Ajdodlar hayot tajribasidan kelib chiqib, shunday hikmat aytganini eslatadi. Shoir daryoning o‘zanini xalq bilan qiyoslaydi. Agar daryo o‘z yo‘lidan chiqsa, uning oqimi buziladi. Xuddi shuningdek, xalq birdamlikni yo‘qotsa, qadriyatlardan uzoqlashsa, jamiyatning tabiiy rivoji ham izdan chiqadi. Bu ramziy tarzda jamiyatning inqirozini anglatadi. Daryo obrazi orqali shoir jamiyat hayotining muhim qonuniyatini badiiy ifodalaydi. Shoirning «Bobodehqon» nomli she‘rida ham insonlar tomonidan tabiatga yetkazilgan zarar va uning fojiaiy oqibatlarini haqida so‘z boradi:

«Ko‘pchigan tuproqda qaqrar saraton,  
Bahor tebratadi rangpar havoni.  
Olti oy oldinda qaqshar qahraton,  
Kuzgacha omon elt olti daryoni.  
Bo‘ronda kemaday turar silkitib,  
Atom, neytronlar vahmi asrni.  
Ulardan yurakka qo‘yding bekitib  
Ikki qo‘lingdagi ikki faslni.  
Bahorga sarg‘ayib qarar saraton,  
Yashil changlar sachrar rangpar havoga.  
Olti oy oldinda turgan qahraton  
Kuzgacha qon berar olti daryoga» [10:18].

Shoir fasllarning almashinuvi orqali hayotning o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi ya‘ni qishning ayoqli kunlari ortida yangilanish fasli bahor bor. She‘rdagi dehqon obrazi esa tabiatda yuz beradigan xavf-xatarlarga befarq qarab turolmaydigan fidoyi shaxs sifatida gavdalanadi. Eshqobil Shukur ijodida falsafiy ma‘no tashiydigan she‘rlarga ko‘p bora duch kelamiz. Ularda umrning o‘tkinchiligi, inson hayotining mazmuni nimadan iboratligi kabi mavzular o‘rin olgan. Shoirning «Ko‘z yumib ko‘rganlarim» nomli she‘rining quyidagi bandida ham shunday ma‘no anglashiladi.

«Ko‘hna charx yonida  
loy pishitayotgan  
bir kulolni ko‘rdim...  
Loyni beshafqat tepkilab,  
ezg‘ilab, ayamay mushtlardi kulol...  
O‘z ustida shunday ishlardi kulol» [ 11: 22].

She‘rdagi kulol va loy obrazlari orqali asosiy mazmun ifodalangan bo‘lib, loyni «tepkilab», ezg‘ilanishi» inson hayotida duch keladigan qiyinchilik va sinovlardir. She‘rdan xulosa shuki, inson tuproqdan yaralgan va yana tuproqqa qaytadi. Inson yo‘qolmagan, u tabiatga singib ketgan, ammo tuproqda, tabiatda, borliqning o‘zida yashashda davom etadi. Insonning vafotidan so‘ng, vaqt o‘tishi bilan unutiladi, lekin u tabiatning bir qismiga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Eshqobil Shukur lirikasida chuqur ma'no-mazmunga to'la, shakl va mazmuni bir-biriga uyg'un, falsafiy ma'no ifodalaydigan, kishini fikrga toldiradigan va zavq bag'ishlaydigan she'rlar bisyordir. Shu sababli, shoirning ijod namunalari adabiyotshunos, munaqqid va she'riyat ixlosmandlari ko'nglidan munosib o'rin egallagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Вохидов Э. Шоиру, шеър у шуур: Адабий эсселар. Т.: «Ёш гвардия», 1987. — 224 б.
2. Адабиётшунослик лугати / Д.Куროнов, З.Мамажонов, М.Шералиева. - Т.: Akadernashr, 2013. - 408 б.
3. Ҳаққулов И. Занжирбанд шеър қошида (Навоий сабоқлари) –Т.: Юлдузча, 1989. – 224 б.
4. Қалб қандили: адабий-танқидий мақолалар. Адабий портрет. Адабий-танқидий очерк / А. Улуғов. - Тошкент: Akadernashr, 2013. —161 б.
5. Шукур Э. Сочлари сумбул-сумбул: Шеърлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. -64 б.
6. Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – 378 б.
7. Шукуров Э. Кўз юмиб кўрганларим. –Тошкент: Akadernashr, 2013. –102 б.

